

## О'ZBEKISTONDA IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA USTUVOR YO'NALISHLARI

*O'rmonov Faxriddin Shuxrat o'g'li*

*Farg'ona davlat universiteti*

*Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)*

*mutaxassisligi magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot tushunchasi, raqamli iqtisodiyotning ahamiyati, raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni, mamlakatimizda iqtisodiyotni raqamlashtirish imkoniyatlari va ustuvor yo'nalishlari yoritib berilgan.

**Kalitli so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, raqamli infratuzilma. Elektron hukumat, interaktiv xizmatlar

Hozirgi axborot texnologiyalar tobora jadallashib rivojlanib borayotgan davrda global integratsiyalashuv jarayonidan ortda qolmaslik uchun raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish katta ahamiyat kasb etmoqda. Endilikda istalgan sohada yangi raqamli texnologiyalarni joriy etish mumkin va bu ancha samarali faoliyat yuritish imkonini bermoqda. Hozirda raqobatda ustunlikka ega bo'lish uchun onlayn savdo-sotiqdan tortib tibbiy xizmatlar ko'rsatish, turizm, avtosanoat barcha barcha sohalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda

Raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida turizmdan tortib reklamagacha, ishlab chiqarish, avtomobil sanoatidan tortib tibbiyot kabi iqtisodiyotning barcha sohalarida keng qo'llanila boshladi. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha olinganda raqamli iqtisodiyotning YaIM dagi ulushi ortib bormoqda, raqamli iqtisodiyotning Jahon YaIMdagi ulushi 15.5% foizga yetgani ham raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanib jahon iqtisodiyotiga salmoqli hissa qo'shayotganidan dalolat beradi. 2018-yilda raqamli transformatsiya qilingan korxonalar jahon nominal YaIMning 13,5 trillion AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda ular 53,3 trillion AQSH dollarini tashkil etishi prognoz qilinmoqda, bu umumiy nominal YaIMning yarmidan ko'pini tashkil etadi. Bu global iqtisodiyotda raqamli ustunlik yaqin ekanligidan dalolat beradi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, raqamli iqtisodiyotning mamlakatlar yalpi ichki mahsulotidagi ulushi AQShda 10,9 foiz, Xitoyda 10 foiz, Hindistonda 5,5 foizini tashkil etadi. "Vouchercloud" portali tadqiqotchilari dunyodagi "eng aqlli" 25 davlat ro'yxatini e'lon qildi. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, birinchi o'rinni Yaponiya egallagan. Kunchiqar yurt tadqiqotning asosiy ko'rsatkichlari — Nobel mukofoti

laureatlari soni, aholining o'rtacha IQ (aql-zakovat) darajasi, maktablardagi o'zlashtirish ko'rsatkich bo'yicha ham eng yuqori bahoga sazovor bo'ldi.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot salmog'i o'yicha bo'yicha jahonda ikki davlat AQSH vs Xitoy davrlari yaqqol yetakchilik qilib kelmoqda. 2023 yil holatiga ko'ra, Qo'shma Shtatlar dunyodagi eng raqamli raqobatbardosh davlat deb topildi. Raqamli raqobatbardoshlik reytingi mamlakatning raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish va ushbu texnologiyalarni korxonalar va davlat tashkilotlari doirasida joriy etish qobiliyatini tahlil qilishga qaratilgan. Ko'pgina Skandinaviya mamlakatlari ro'yxatda yuqori o'rinlarni egallagan, Daniya, Shvetsiya, Norvegiya va Finlyandiya birinchi o'n beshtalikdan joy olgan.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasida O'zbekistonda ham bu borada bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Quyidaqi jadvalda ko'rishimiz mumkinki raqamli iqtisodiyotning YaIM dagi ulushi YaQQga nisbatan yildan yilga ortib bormoqda va 2022 yilga kelib 2.5% ni tashkil etgan va bu ko'rsatkichni oshirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

So'ngi yillarda o'zbekistonda ham raqamli texnologiyalardan iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va biznes yuritishda foydalanish ko'rsatkichlari ortib bormoqda. Xususan elektron tijorat, AKt savdosi OAV sohalarida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat miqdori ortib borish tendensiyasiga ega. O'zbekiston aholi soni 2022 yil holatiga ko'ra 35.5 millionni tashkil etadi va bu aholining kata qismi internet foydalanuvchilari hisoblanad. Bu esa E-elektron tijorat, elektron biznes yuritish uchun qulay sharoit yaratishi mumkin.

Bugun raqamli texnologiyalar barcha sohalarga va odamlar hayotiga jadal kirib bormoqda. Mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish eng muhim vazifaga aylangan. Prezidentimizning 2020 yil 28 apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida 2023 yilga borib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2, ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravar oshirish, ular eksportini 100 million AQSh dollariga yetkazish vazifasi qo'yilgan.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ochiqlik, xalqaro iqtisodiy-siyosiy aloqalarning rivojlanishi yurtimizda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash imkoniyatlarini yuzaga chiqardi. Bunga mamlakatimiz tashqi savdo hajmining o'sishini misol qilib keltirish mumkin. "Elektron hukumat", "elektron boshqaruv", "telekommunikatsiya", "internet", "veb-sayt" kabi yuzlab iboralar hayotimizning ajralmas bo'lagiga aylandi. IT kundalik hayotimizning barcha sohasini qamrab olmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida Elektron hukumat va yagona interaktiv xizmatlar portali orqali 178 ta xizmat yo'lga qo'yildi hamda ushbu xizmatlar aholining vaqti va xarajatlarini tejamoqda.

Raqamli hukumat transformatsiyasi bo'yicha yuqori darajadagi rahbarlik Vazirlar Mahkamasi tomonidan ta'minlanadi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi komissiya tomonidan har oyda hukumat rahbarlari va mahalliy ijrochilarning raqamli transformatsiya tashabbuslari, hududiy va sanoat dasturlari hamda qabul qilingan "yo'l xaritalari"ni amalga oshirish bo'yicha hisobotlari eshitiladi. Shuningdek, yangi loyihalar ko'rib chiqiladi, zarurat tug'ilganda tashkilotlar, hududlar va tarmoqlarning raqamli transformatsiya dasturlari va yo'l xaritalariga o'zgartirishlar kiritiladi. Muvofiqlashtiruvchi komissiya viloyat hokimliklari bilan birgalikda 29 ta pilot shaharda raqamli transformatsiya yo'l xaritalarini joriy etish bo'yicha hududiy ishchi guruhlarini tuzdi.

Hukumatning raqamli transformatsiyasi turli donorlar, xalqaro rivojlanish tashkilotlari va davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Yaqinda yakunlangan "Davlat boshqaruvini isloh qilish va raqamli transformatsiya" loyihasi BMTTD tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Bu davlat xizmatlarini ko'rsatishni yanada mas'uliyatli, shaffoflik va fuqarolarning ehtiyojlariga mos ravishda ko'rsatishni yaxshilashga va huquqiy axborotdan foydalanishni yaxshilashga yordam berdi. BMTTD tashkilotning mamlakatning odamlarga yo'naltirilgan, "yashil" va barqaror rivojlanishini, ayniqsa, COVID19 pandemiyasidan keyin qo'llab-quvvatlashga sodiqligini yana bir bor tasdiqladi. Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilayotgan "O'zbekiston qishloqlarida davlat xizmatlarini ko'rsatishni yaxshilash va boshqaruvni takomillashtirish" loyihasi O'zbekiston hukumatiga odamlarga yo'naltirilgan davlat xizmatlarini ko'rsatishni rivojlantirish va atrof-muhit, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishda mahalliy boshqaruv tizimini mustahkamlashda yordam beradi.

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Shu bois raqamli iqtisodiyotga faol o'tish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi.

Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni, ayniqsa, korrupsiyani keskin kamaytiradi.

O'zbekistonda DECA(Digital Economy Central Asia) 2021-yilning may-avgust oylarida bo'lib o'tdi. DECA jamoasi stol ustidagi tadqiqotlar, USAID/O'zbekiston bilan maslahatlashuvlar va ikki yarim hafta davomida mamlakatda asosiy ma'lumot beruvchilar bilan suhbatlar o'tkazdi. Mamlakat ichidagi tadqiqot Qoraqalpog'iston Muxtor Respublikasi va Buxoro viloyatiga tashriflar, shuningdek, Namangan viloyatidagi manfaatdor tomonlar bilan virtual intervyularni o'z ichiga oldi. DECA guruhi hukumat, sanoat, fuqarolik jamiyati, ilmiy doiralar, xalqaro rivojlanish tashkilotlari va USAID/O'zbekiston texnik guruhlarini manfaatdor tomonlari bilan 66 ta intervyu o'tkazdi.



Raqamli strategiyani amalga oshirishning bir qismi sifatida DECA mamlakatning raqamli ekotizimidagi imkoniyatlar va muammolarni tushunish uchun uchta keng yo'nalishni ko'rib chiqadi:

1. Raqamli infratuzilma va qabul qilish
2. Raqamli jamiyat, huquqlar va boshqaruv
3. Raqamli iqtisodiyot

O'zbekistonning Raqamli strategiyasining asosiy strategik ustunlaridan biri raqamli ulanish infratuzilmasini rivojlantirish hisoblanadi. Strategiyaning raqamli infratuzilma maqsadlari orasida optik tolali magistral va o'rta milli tarmoqning qo'llanilishi va sig'imini kengaytirish, barcha fuqarolarni xavfsiz, arzon, yuqori sifatli keng polosali internet bilan ta'minlash, jumladan, barcha "ijtimoiy ob'yektlar"ni (maktablar, universitetlar, hukumatlar) qamrab olish, AT markazlari, shifoxonalar, sog'liqni saqlash markazlari va mahallalar) ochiq va raqobatbardosh telekommunikatsiya sektorini rivojlantirish hamda shahar/qishloq raqamli tafovutni kamaytirish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Becker, Gary S. Human Capital.— N.Y.: Columbia University Press, 1964. Shultz T. Human Capital in the international Encyclopedia of the Social Sciences.— N.Y.
2. International Labour Organization, ILOSTAT. URL: ilo.org/global/statisticsdatabases/lang— en/index
3. ICT specialists in employment. Eurostat metadata. URL:ec.europa.eu/eurostat/metadata/en/isoc\_skslf\_esm
4. UNESCO Institute for Statistics, UIS.Stat
5. OECD, Education at a Glance Database. <http://dx.doi.org>
6. Индикаторы инновационной деятельности: Статистический сборник / Н.В. Городникова,
7. Л.М. Гохберг, К.А. Дитковский и др.; Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики».— М.: НИУ ВШЭ
8. DIGITAL ECOSYSTEM COUNTRY ASSESSMENT (DECA) Uzbekistan JANUARY 2022
9. "Public Administration Reforms and Digital Transformation | UNDP in Uzbekistan." n.d. UNDP. Accessed October 19, 2021. <https://www.uz.undp.org/content/uzbekistan/en/home/projects/public-administration-reforms-and-digital-transformation.html>
10. "Improving Public Services and Strengthening Governance in Rural Uzbekistan." 2020. European Commission. October 13, 2020. [https://ec.europa.eu/international-partnerships/projects/improving-public-services-and-strengthening-governance-rural-uzbekistan\\_en](https://ec.europa.eu/international-partnerships/projects/improving-public-services-and-strengthening-governance-rural-uzbekistan_en).
11. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
12. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)